



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:ZAMONAVIY
PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**

Abduraxmonova Oydinoy Mansurovna

*Qo'qon davlat universiteti Pedagogika va Psixologiya fakulteti Maktab menejmenti
yo'nalishi 402-guruh talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada farzand tarbiyasida ota-onalarning o'rni, ularning pedagogik va psixologik yondashuvlari zamonaviy ilmiy qarashlar asosida tahlil etilgan. Unda ota-onaning shaxsiy namunasi, oilaviy muhitning bola rivojlanishiga ta'siri, shuningdek, raqamli asrda farzand tarbiyasida yuzaga kelayotgan yangi vazifalar haqida so'z yuritiladi. Maqolada insonparvar pedagogika, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va kommunikativ yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ota-onalarning pedagogik madaniyati, ularning bola bilan to'g'ri muloqot o'rnatish ko'nikmalari ham tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida ota-onalarning zamonaviy bilim va psixologik saviyasini oshirish farzandni barkamol inson qilib tarbiyalashning asosiy omili ekani asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: farzand tarbiyasi, ota-ona, pedagogik madaniyat, psixologik yondashuv, kommunikativ kompetensiya, zamonaviy pedagogika, oilaviy muhit.

**РОЛЬ РОДИТЕЛЕЙ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ: СОВРЕМЕННЫЕ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ**

Абдурахмонова Ойдиной Мансуровна

*студентка факультета педагогики и психологии Кокандского
государственного университета, направление "Школьный менеджмент",
402-я группа*

Аннотация. В данной статье проанализирована роль родителей в воспитании детей, а также их педагогические и психологические подходы на основе современных научных представлений. В ней рассматривается личный пример родителей, влияние семейной среды на развитие ребёнка, а также новые задачи, возникающие в воспитании в цифровую эпоху. В статье освещается значение гуманистической педагогики, личностно-ориентированного обучения и коммуникативных подходов. Кроме того, анализируется педагогическая культура родителей и их умение устанавливать правильное общение с ребёнком. В результате исследования обосновано, что повышение современного уровня знаний и психологической компетентности родителей является основным фактором воспитания всесторонне развитой личности.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Ключевые слова: *воспитание детей, родители, педагогическая культура, психологический подход, коммуникативная компетентность, современная педагогика, семейная среда.*

**THE ROLE OF PARENTS IN CHILD UPBRINGING: MODERN
PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL APPROACHES**

Abdurakhmonova Oydinoy Mansurovna

*student of the Faculty of Pedagogy and Psychology, School Management
Department, 402nd group, Kokand State University*

Abstract: *This article analyzes the role of parents in the upbringing of children, as well as their pedagogical and psychological approaches based on modern scientific perspectives. It discusses the personal example of parents, the influence of the family environment on a child's development, and the new challenges arising in parenting during the digital age. The article highlights the importance of humanistic pedagogy, learner-centered education, and communicative approaches. It also examines parents' pedagogical culture and their ability to establish proper communication with their children. The study concludes that improving parents' modern knowledge and psychological competence is the main factor in raising a well-rounded and harmoniously developed personality.*

Keywords: *child upbringing, parents, pedagogical culture, psychological approach, communicative competence, modern pedagogy, family environment.*

Kirish. Amerikalik mashhur pediatri va psixolog Benjamin Spock o'zining "Bola parvarishi va tarbiyasi" ("Baby and Child Care") nomli asarida shunday degan edi: "Farzandingizni tarbiyalashda eng muhim narsa — unga mehr bilan qarash va unga ishonishdir. Bola muhabbat orqali o'rganadi, ishonch orqali esa ulg'ayadi"[3]. Ushbu fikr nafaqat ota-onalarning tarbiyaviy faoliyatini, balki butun insonparvar pedagogika mohiyatini chuqur ifodalaydi. Chunki bola hayotining dastlabki yillaridanoq uning ruhiy dunyosi, o'ziga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy qadriyatlarni anglash darajasi aynan ota-onalar tomonidan shakllantiriladi.

Bugungi kunda psixologiya va pedagogika fanlari farzand tarbiyasida ota-onalarning roli beqiyos ekanini ilmiy asoslab bermoqda. Bola shaxsining shakllanishida oila — birlamchi ijtimoiy muhit bo'lib, unda farzand dastlabki hissiy, axloqiy va ijtimoiy tajribani egallaydi. Ota-onaning bolaga nisbatan munosabati, ularning bir-biriga bo'lgan hurmati, muloqot uslubi, mehr va e'tibor darajasi farzandning kelgusidagi shaxsiy rivojlanish yo'nalishini belgilab beradi. Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko'ra, bola shaxsining sog'lom shakllanishida ota-onaning psixologik yetukligi, pedagogik



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



madaniyati va kommunikativ kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda, raqamli asrda ulg'ayayotgan bolalarning dunyoqarashi, qadriyatlari va ehtiyojlari o'tgan davr avlodlarinikidan tubdan farq qiladi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, axborot oqimining kuchayishi bolalarning ruhiy olamiga, ijtimoiy moslashuviga va qadriyatlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois ota-onalar zamonaviy pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollanib, farzand bilan to'g'ri muloqot o'rnatish ko'nikmalarini egallashi lozim. Insonparvar pedagogika namoyandalari, jumladan Ya.A. Komenskiy, K. Rodjers, J. Dyui kabi olimlar ta'lim va tarbiyada shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni eng samarali metod sifatida e'tirof etgan. Ularning ta'kidlashicha "Bola shaxsini shakllantirishda majburlash yoki buyruqbozlik emas, balki ishonch, rag'bat, mehr va muloqot muhitini yaratish eng to'g'ri yo'ldir"[4]. Shu jihatdan qaraganda, ota-onaning har bir so'zi, harakati va kayfiyati bolaning ruhiy rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Ota-onalar farzandga nafaqat ma'naviy yo'l-yo'riq beruvchi, balki uni hayot sinovlariga tayyorlaydigan, mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijtimoiy mas'uliyatni his etishga undovchi shaxs bo'lishi kerak. Shu bois, bugungi kunda ota-onalarning pedagogik madaniyatini yuksaltirish, psixologik savodxonligini oshirish va farzand bilan o'zaro ishonchga asoslangan muloqotni shakllantirish dolzarb masalaga aylangan.

Asosiy qism: Farzand tarbiyasi — bu millatning kelajagini belgilovchi eng muhim ijtimoiy jarayonlardan biridir. Har qanday jamiyatning ma'naviy va intellektual taraqqiyoti, eng avvalo, oilada berilayotgan tarbiya sifatiga bog'liq. Bola shaxsining shakllanishida ota-onaning o'rni beqiyosdir. Ularning so'zi, xatti-harakati, dunyoqarashi farzand tafakkuri va xulq-atvorining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z chiqishlarida bu masalaga alohida urg'u berib shunday degan edi: "Farzandlarimizni har tomonlama yetuk, barkamol insonlar qilib tarbiyalash — bu nafaqat oila, balki butun jamiyatning muqaddas burchidir. Bola tarbiyasi, eng avvalo, ota-onaning shaxsiy namunasi bilan boshlanadi"[2]. Bu fikr ilmiy jihatdan ota-onaning modeling effect (namunaviy ta'sir) tamoyiliga to'liq mos keladi. Psixologiyada bu jarayon "ijtimoiy o'rganish nazariyasi" (A. Bandura) orqali izohlanadi. Ya'ni bola atrofidagi kattalarning xatti-harakatini kuzatib, ularni o'z xulqiga singdiradi. Shu sababli, ota-onaning har bir so'zi va amali bolaning ichki dunyosiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Prezidentimiz ta'lim va tarbiya siyosatini inson omiliga qaratib, "Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat" tamoyilini ilgari surgan. Bu yondashuv zamonaviy pedagogika prinsiplari bilan uyg'un bo'lib, insonparvar pedagogika konsepsiyasining amaliy ifodasidir. Insonparvarlik yondashuvi shaxsni markazga qo'yadi va tarbiyada zo'ravonlik yoki majburlash o'rniga, ishonch, mehr va hurmat tamoyillarini ilgari suradi. Chet el ta'lim tizimida ham shu tamoyillar ustuvor. Masalan, Finlyandiya, Yaponiya va Kanada kabi mamlakatlarda ota-onalar farzandlarining ruhiy holatiga alohida e'tibor berishadi. Bu davlatlarda "family-school partnership" (oil va maktab hamkorligi) dasturlari amalda ishlaydi. O'zbekiston ham bu borada bosqichma-bosqich



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



islohotlarni joriy etmoqda. Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorida ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, pedagogik madaniyatni yuksaltirish asosiy yo‘nalish sifatida belgilangan.[1]

Qadimgi allomalarimiz ham ota-onaning bola tarbiyasidagi rolini chuqur tahlil qilganlar. Abu Nasr Forobiy “Fozil shahar aholisining fikri” asarida insonning barkamollikka faqat to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq, aqliy va axloqiy tarbiya orqali erishishini ta’kidlagan. Ibn Sino esa “Donishnoma” asarida bolani yoshligidan mehnatsevarlik, odo va sabr bilan tarbiyalashni ota-onaning eng muhim vazifasi deb bilgan. Bugungi kunda O‘zbekiston yoshlari global axborot maydonida ulg‘aymoqda. Internet, media, virtual olam va sun‘iy intellekt bolalar tafakkuriga ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, ota-onalar faqat nazorat qiluvchi emas, balki farzandining ruhiy yo‘ldoshi, psixologik tayanchiga aylanishlari zarur. Shavkat Mirziyoyev bu haqda shunday degan edi: “Zamonaviy ota-ona farzandiga buyruq beruvchi emas, balki uni tinglay oladigan, unga ishonch bag‘ishlaydigan, ruhiy madad beradigan inson bo‘lishi kerak.” Bu fikr zamonaviy psixologiyada “emotsional intellekt” (D. Goleman nazariyasi) bilan izohlanadi. Ya’ni bola o‘z his-tuyg‘ularini tushunish va boshqarishni, boshqalar hissiyotini anglashni ota-onadan o‘rganadi. Bu esa keyinchalik shaxsning ijtimoiy moslashuvchanligiga, yetakchilik fazilatlariga va sog‘lom psixik rivojlanishiga olib keladi.

Mening fikrimcha, bugungi O‘zbekiston sharoitida ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirish, pedagogik madaniyatini mustahkamlash — milliy rivojlanishning asosiy kafolatlaridan biridir. Chunki kuchli oila — kuchli jamiyatni yaratadi. Prezidentimiz ham ta’kidlaganidek: “Yoshlarimizni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalamasdan turib, Yangi O‘zbekistonni barpo etib bo‘lmaydi.”

Demak, farzand tarbiyasi — bu shunchaki oilaviy masala emas, balki mamlakat taraqqiyoti, millat istiqboli, kelajak avlod taqdiri bilan chambarchas bog‘liq ijtimoiy jarayondir.

Xulosa. Jamiyat taraqqiyoti uchun farzand tarbiyasi nafaqat oilaviy muammo, balki jamiyatning ma’naviy-axloqiy sog‘lomligini belgilovchi omilga aylandi. Shu sababli, zamonaviy ota-onalar uchun tarbiya jarayonini yangi sharoitlarga moslashtirish, farzandlar bilan muloqotni yangicha pedagogik va psixologik asosda tashkil etish zarur. Birinchidan, ota-onalarning pedagogik va psixologik savodxonligini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Har bir oila a’zosi farzandning yosh xususiyatlari, hissiy ehtiyojlari, psixologik bosqichlari haqida asosiy tushunchalarga ega bo‘lishi lozim. Bu borada xalq ta’limi bo‘limlari, maktablar, psixologlar va mahalla tizimi o‘zaro hamkorlikda maxsus “Ota-onalar maktabi” dasturlarini yo‘lga qo‘yishlari maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi emosional aloqani mustahkamlash kerak. Bugungi kunda ko‘plab bolalar axborot texnologiyalariga qaram



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



bo‘lib, jonli muloqotdan uzoqlashib bormoqda. Shu sababli, ota-onalar har kuni bolalari bilan ochiq suhbatlar o‘tkazish, ularni tinglash, hissiy qo‘llab-quvvatlash orqali ularning ichki dunyosini anglashlari zarur. Shu orqali bolaning ishonch hissi, o‘ziga baho berish qobiliyati va ijtimoiy faolligi shakllanadi. Uchinchidan, oila va ta‘lim muassasasi o‘rtasida samarali hamkorlikni kuchaytirish lozim. Maktab o‘qituvchisi, sinf rahbari va psixologlar ota-onalar bilan muntazam aloqada bo‘lib, farzandning individual xususiyatlari asosida birgalikda tarbiya strategiyasini ishlab chiqishlari kerak. Shundagina ta‘lim va tarbiya bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida ishlaydi. To‘rtinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini saqlab qolish muhimdir. Global madaniyat ta‘sirida ko‘plab yoshlar begona qadriyatlarni o‘zlashtirib, milliy o‘zligidan uzoqlashmoqda. Shu bois ota-onalar farzandlariga o‘z milliy ildizlarini, tarixini, ajdodlar merosini sevdirlashlari, ularni milliy g‘urur va insoniylik ruhida tarbiyalashlari lozim.

Tez rivojlanib borayotgan va raqamli transformatsiya jarayonida farzand tarbiyasi masalasi jamiyat taraqqiyotining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bola shaxsini shakllantirish, uni barkamol inson sifatida voyaga yetkazish jarayoni avvalo oilada, ota-onaning shaxsiy namunasi, ma‘naviy qadriyatlari va pedagogik madaniyatiga bevosita bog‘liqdir. Shu boisdan, zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar ota-onani nafaqat farzand tarbiyachisi, balki ta‘lim-tarbiya tizimining faol subyekti sifatida ko‘radi. Ota-onalarning bola psixologiyasi haqidagi bilim darajasining oshirilishi, ularning emotsional intellektini rivojlantirish, muloqot madaniyatini takomillashtirish bugungi kunning eng muhim vazifasidir. Chunki zamonaviy bola — axborot oqimida yashayotgan, mustaqil fikrlaydigan, tez o‘zgaruvchan ijtimoiy muhitga moslasha oladigan shaxsdir. Ana shunday sharoitda ota-ona eski andozalarga tayanib tarbiya olib borsa, bola va kattalar orasida ruhiy tafovut kuchayadi. Shu boisdan tarbiya jarayonida ota-onalarning o‘zini o‘qitish, pedagogik kompetensiyalarini yangilab borish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanishi lozim.[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma‘naviyatli va zamonaviy bilimlarga ega insonlar etib tarbiyalash — eng katta boyligimiz va eng muqaddas burchimizdir.” Ushbu fikr nafaqat siyosiy chaqiriq, balki milliy tarbiya konsepsiyasining ilmiy asosidir. Chunki ota-onalar o‘z farzandlarini faqatgina intizomli yoki “odobli” qilishga emas, balki ularni ijodkor, tanqidiy fikrlovchi, jamiyatga foydali shaxslar etib voyaga yetkazishga yo‘naltirmog‘i zarur. Xorijiy tajribalarga murojaat qilar ekanmiz, Skandinaviya mamlakatlari, ayniqsa Finlyandiya va Shvetsiya tajribalari e‘tiborga molikdir. Bu davlatlarda tarbiya jarayonida bolaning mustaqilligiga, ichki motivatsiyasiga va ruhiy holatiga katta e‘tibor qaratiladi.[6] Ota-onalar farzand bilan “teng suhbat” asosida muloqot olib boradi, bolaning har bir xatti-harakatini tahlil qilib, uni jazolash o‘rniga sababni tushunishga intiladi. Bu yondashuv bola psixologiyasida ishonch, o‘ziga baho berish va mas‘uliyat hissini shakllantiradi. Qadimgi allomalar — Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Al-G‘azzoliy va



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Yassaviylar ham tarbiya jarayonida ota-onaning shaxsiy fazilatlariga alohida urg‘u berganlar. Ularning asarlarida “bola qalbi nozik, u suv singari shakl oladi”[7] degan fikrlar zamonaviy psixologiyada ham o‘z aksini topgan. Demak, inson shaxsining asosiy qadriyatlari, xulqiy me‘yorlari, iymon va axloq poydevori aynan oilada, ota-ona namunasida shakllanadi. Hozirgi sharoitda farzand tarbiyasidagi muammolar — axborot tarmog‘ining cheksizligi, ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy kontent, ota-onaning vaqt yetishmasligi, oilaviy qadriyatlarning ayrim hollarda yemirilishi kabi omillar bilan bog‘liq. Ushbu holatlardan chiqishning eng maqbul yo‘li — ota-onalarni zamonaviy tarbiya va kommunikatsiya uslublariga o‘qitish, ularni psixologik jihatdan tayyorlashdir. Ota-onalar uchun maxsus treninglar, seminarlar, psixologik maslahat markazlarini tashkil etish, pedagogik bilimlarni ommalashtirish muhim natijalar beradi.

Bundan tashqari, farzand tarbiyasida milliy qadriyatlar bilan bir qatorda jahon ilg‘or tajribasini uyg‘unlashtirish zarur. Masalan, Sharqona mehr va g‘amxo‘rlikni Yevropa ta‘limidagi mustaqillik va tanqidiy fikrlash madaniyati bilan uyg‘unlashtirish — kelajak avlodni har tomonlama yetuk, global tafakkurli, lekin milliy qadriyatlariga sodiq inson etib tarbiyalash imkonini beradi. Shunday qilib, zamonaviy tarbiyada ota-onalarning roli faqat nazoratchi yoki taqiqlovchi emas, balki yo‘l ko‘rsatuvchi, qo‘llab-quvvatlovchi, ruhiy jihatdan barqaror shaxs sifatida namoyon bo‘lishi kerak. Farzand tarbiyasida “birgalikda o‘shish” tamoyili — ota-ona va bola o‘zaro o‘rganadigan, fikr almashadigan, bir-birini tushunadigan muhit yaratish — eng samarali yo‘ldir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ–228-son Qarori — “Oilada ta‘lim va tarbiyani mustahkamlash hamda ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi rasmiy sayti — lex.uz. .

2. Mirziyoyev, Sh. M. (2019). Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti.

3. Bandura, A. (1977). Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi (Social Learning Theory). Englewood Cliffs, Nyu-Jersi: Prentice Hall.

4. Spok, B. (1946). Bola parvarishi va g‘amxo‘rliqi: Sog‘lom fikrga asoslangan qo‘llanma (The Common Sense Book of Baby and Child Care). Nyu-York: Duell, Sloan and Pearce.

5. Vygotskiy, L. S. (1982). Pedagogik psixologiya. Moskva: Pedagogika nashriyoti.

6. “Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi” — Vikipediya.

https://en.wikipedia.org/wiki/Social_learning_theory

7. “Bobo qo‘g‘irchoq tajribasi.” Vikipediya.

https://en.wikipedia.org/wiki/Bobo_doll_experiment